XALQ DEPUTATLARI NURAFSHON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 10-oktabr VI-98-92-10-213-K/24 Nurafshon shahri

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Nurafshon shahridagi mavjud nomi davlat ro‘yxatidan o‘tmagan geografik obyekt (1 ta qabriston)ga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga asosan Nurafshon shahri hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha shahar komissiyasining 2024-yil 12-iyuldagi 1/7-4-102-sonli yig‘ilish bayoni bo‘yicha Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 2-avgustdagi 1/12-4-6916-sonli javob xatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 22-iyuldagi 08-09894-sonli yig‘ilish bayoniga ko‘ra, xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1.Nurafshon shahri hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha shahar komissiyasining 2024-yil 12-iyuldagi 1/7-4-102-sonli yig‘ilish bayoni bo‘yicha Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 2-avgustdagi 1/12-4-6916-sonli javob xatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 22-iyuldagi 08-09894-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagi ekspert xulosasiga ko‘ra shahardagi mavjud 1 ta qabristonning qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomi **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Shahar obodonlashtirish boshqarmasi,shahar bosh imom xatibi 1 oy muddatda shahardagi mavjud qabristonni ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarini o‘rnatish va olib borilgan ishlaryuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha shahar komissiyasi (M.Shoismanova)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror “Mash’al” ijtimoiy-siyosiy gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatishmasalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Usmonov) hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisi o‘rinbosari (M.Shoismanova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi KLICHXANOV ILXOM MAXMUDJONOVICH

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 10-oktabrdagi
VI-98-92-10-213-K/24 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Nurafshon shahridagi mavjud nomi davlat ro‘yxatidan o‘tmagan geografik obyekt (1 ta qabriston)ga nom berish to‘g‘risida qaror ilovasi

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektga berilgan nomi yoki qayta nomlanishi	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1	Qabriston	Xurriyat mahallasi	Nomsiz	“Eski koreyslar qabristoni”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.